

**O‘zbekiston Respublikasi  
Markaziy bankining  
Makroprudensial siyosat asoslari**

2023-yil fevral

## **Qisqartmalar**

BDAK	Birinchi darajali asosiy kapital
BNBQ	Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi
DE	Defolt ehtimoli
DHYH	Defolt holatida yo'qotishlar hajmi
JMTQ	Jahon moliya tizimi qo'mitasi
KB	Kichik banklar
KDN	Kreditlarning depozitga nisbati
KGN	Kredit summasining garov summasiga nisbati
KKB	Kontrsiklik kapital bufer
KSDN	Kredit summasining daromadga nisbati
KTDN	Kredit to'lovining daromadga nisbati
LK	Lizing kompaniyalari
LQMK	Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti
MBK	Moliyaviy barqarorlik kengashi
MBSH	Moliyaviy barqarorlik sharhi
MPS	Makroprudensial siyosat
MPSA	Makroprudensial siyosat asoslari
MTAMB	Mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar
NBT	Nobank kredit tashkilotlari
QSDN	Qarz summasining daromadga nisbati
QXKDN	Qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati
SK	Sug'urta kompaniyalari
TXB	Tizimli xatarlar buferi
XTAMB	Xalqaro tizimli ahamiyatga molik banklar
XVJ	Xalqaro valyuta jamg'armasi
Yalm	Yalpi ichki mahsulot
YTXK	Yevropa tizimli xatarlar kengashi

## **Mundarija**

Qisqartmalar .....	1
Kirish .....	3
I. Makroprudensial siyosatning mohiyati .....	5
II. Makroprudensial siyosatning asosiy va oraliq maqsadlari.....	8
III. Makroprudensial siyosat vositalari .....	10
IV. Makroprudensial siyosat vositalarining transmission kanallari .....	16
V. Makroprudensial siyosatni amalga oshirish .....	22
5.1. Makroprudensial siyosatni amalga oshirishning asosiy tamoyillari .....	22
5.2. Makroprudensial siyosatni amalga oshirish bosqichlari .....	23
5.3. Makroprudensial siyosatning boshqa siyosatlar bilan o‘zaro bog‘liqligi .....	27
5.4. Makroprudensial siyosat kommunikatsiyasi .....	29
Glossariy .....	31
Illova.....	36

## Kirish

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (Markaziy bank) asosiy maqsadlaridan biri bank tizimining barqarorligini ta'minlashdan iboratdir ("O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun, 5-modda)<sup>1</sup>. Ushbu maqsaddan kelib chiqib Markaziy bank doimiy ravishda tizimli xatarlarni oldini olishga qaratilgan makroprudensial siyosat vositalaridan foydalanib keladi.

Ta'kidlash joizki, 2007–2008-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi, 2020–2021-yillardagi pandemiya inqirozi, 2022-yildagi geosiyosiy va tashqi iqtisodiy sharoitlarning keskin o'zgarishiga qaramasdan, O'zbekiston bank tizimi jiddiy yo'qotishlarga uchramagan holda tizimli xatarlarga yetarlicha bardosh bera oldi. Inqirozlar oqibatida yuzaga kelgan shoklarga javoban kapital va likvidlilik zaxiralarining yetarlicha yaratilganligi bank tizimi barqarorligiga zamin bo'ldi.

Ayni paytda, tashqi iqtisodiy sharoitlardagi keskin o'zgarishlarning davom etayotganligi, ichki makroiqtisodiy vaziyatning rivojlanishi, kredit olishga bo'lgan moyillikning saqlanib qolinayotganligi kelgusi davr uchun moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki xatarlarni yuzaga chiqarishi mumkin.

O'zbekistonda moliya tizimida muhim islohotlar, xususan banklar faoliyatining transformatsiyasi, yirik davlat banklarini xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Davom etayotgan ushbu islohotlar bank tizimida yuqori raqobatni shakllantirgan holda banklarning tavakkalchilikka bo'lgan moyilligining oshishiga olib kelish ehtimoli yuqori.

Bundan tashqari, kelajakda iqlim o'zgarishining moliyaviy barqarorlikka ta'siri bilan bog'liq vaziyat tobora murakkablashib borishi kutilmoqda. Bu esa, Markaziy bank o'zining makroprudensial siyosat yondashuvini aniq belgilab olishini taqozo etmoqda.

Shunga ko'ra, kutilayotgan xatarlarning oldini olish, ularga javoban samarali choralar ko'rish maqsadida hamda Xalqaro valyuta jamg'armasining tavsiyasiga<sup>2</sup> ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Makroprudensial siyosat asoslari belgilanmoqda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi yangi tahrirdagi O'RQ-582-sonli Qonuni. 5-modda.

<sup>2</sup> IMF, 2013, "Key Aspects of Macroprudential Policy," Article 79.

Markaziy bankning Makroprudensial siyosat asoslari keng e'tirof etilgan xalqaro standartlarga, xususan, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi (BNBQ), Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Moliyaviy barqarorlik kengashi (MBK) standartlariga muvofiq ishlab chiqildi.

Makroprudensial siyosat asoslari Markaziy bank tomonidan O'zbekistonda moliya tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan makroprudensial siyosatni amalga oshirishning umumiy konsepsiyasini belgilab beradi.

Makroprudensial siyosatning ahamiyati, uning maqsadlari, vositalari hamda amalga oshirilishini belgilab olish Makroprudensial siyosat asoslarining bosh maqsadi hisoblanadi. Markaziy bankning Makroprudensial siyosati asoslarini ishlab chiqishning muhim jihatlaridan biri, uning keng jamoatchilik uchun ochiqligini ta'minlash hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, makroprudensial siyosatning O'zbekiston moliya tizimidagi o'rnini tushunishga hamda shaffof kommunikatsiya siyosatini yuritishga xizmat qiladi.

## I. Makroprudensial siyosatning mohiyati

2007–2008-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi moliya tizimidagi tizimli xatarlarni yaqqol namoyon qildi. Tizimli xatarlarning yuzaga chiqishi iqtisodiy faoliyatni qisqartirib, moliyaviy inqirozni keltirib chiqaradi. Uzoq muddatli davrda moliyaviy nobarqarorlikning oqibatlari va yo'qotishlari juda katta, davomiy, keng qamrovli bo'lishi hamda iqtisodiy faollikni sezilarli pasaytiruvchi ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda moliya tizimi aktivlarining qariyb 97 foizi<sup>3</sup> banklar hisobiga to'g'ri keladi, bu esa makroprudensial siyosatni amalga oshirishda bank tizimi o'ta muhimligini anglatadi.

Makroprudensial siyosat – bu tizimli xatarlarni<sup>4</sup> makroprudensial vositalar yordamida cheklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir (IMF 2013).

Tizimli xatarlar ikki xil ko'rinishda yuzaga kelishi mumkin:

- yillar davomida yig'ilib boradigan xatarlar (davriy tizimli xatarlar);
- moliyaviy tashkilotlar o'tasidagi bevosita yoki bilvosita munosabatlar bilan bog'liq xatarlar (tarkibiy tizimli xatarlar). (IMF-BIS-FSB 2016).

**Davriy tizimli xatarlar** moliyaviy tashkilotlar va ularning mijozlarida asta-sekinlik bilan to'planuvchan va prosiklik xarakteriga ega. Banklar tomonidan kreditlarning ajratilishi aktivlar narxining oshishiga sabab bo'ladi. Ko'p miqdordagi kreditlarning ajratilishi hamda sabab-oqibat zanjir uzlusizligining davom etishi aktivlar narxining yanada tezroq oshishiga olib keladi.

Ma'lum bir vaqtga kelib, narxlarning pasayishi boshlanadi hamda qayta aloqa xalqasi (feedback loop) teskari yo'nalishda harakatlanib moliyaviy nobarqarorlikka sabab bo'ladi.


Ushbu holatda, kredit bo'yicha xarajatlar oshadi va aktivlar narxi pasayadi, bu esa aktivlarning yoppasiga sotilishi oqibatida aktivlar narxining yanada pasayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu mexanizm garov qiymatlarining pasayishi hisobiga moliyaviy tashkilotlar va mijozlarning defoltga uchrashiga hamda moliya tizimidagi muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa, real sektorga salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin (1-chizma).

---

<sup>3</sup> International Monetary Fund, Republic of Uzbekistan: Technical Assistance Report — Multi-Topic Statistics Diagnostic, December 2021, p. 68.

<sup>4</sup> Tizimli xatar bu – real iqtisodiyot uchun jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan, moliya tizimining butun yoki ayrim qismlarining izdan chiqishi natijasida yuzaga kelgan moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning uzilish xataridir.

## 1-chizma. Davriy tizimli xatarlar (Iqtisodiy o'sish va qisqarish davrlarida)



Manba: Markaziy bank.

**Tarkibiy tizimli xatarlar** moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi bevosita hamda bir xil yoki o'xhash aktivlarga doir tavakkalchiliklar orqali bilvosita aloqalarda yuzaga keladi (2-chizma). Bevosita aloqalar qarz beruvchi va qarz oluvchi moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi turli shartnomaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Narxi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan bir xil yoki o'xhash aktivlarga nisbatan moliyaviy tashkilotlarning tavakkalchiligi bilvosita aloqalarni ifodalaydi.

Aktivlar narxlaringut kutilmaganda keskin pasayishi aktivlarga nisbatan sezilarli tavakkalchilikka ega bo'lgan barcha tashkilotlarda bir vaqtning o'zida xatarlarning paydo bo'lishiga va buning natijasida, moliya tizimida nobarqarorlik holati yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.


Mazkur nobarqaror holat vaqt davomida to'planib boriladigan yashirin yoki e'tiborsiz qoldirilgan zaifliklar (kredit xatarlari boshqarish standartlarining yengillashishi, garovning bozor narxiga nisbatan yuqoriq baholanishi, qarz oluvchilarning yuqori leveraji, muddatlar o'rtasidagi va valyutalar o'rtasidagi nomutanosibliklar) natijasida yuzaga keladi. Jahan moliyaviy inqirozi davrida ipoteka bozorlariga bo'lgan umumiylavakkalchiliklar ushbu holatlarga misol bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy barqaror davrda moliyaviy tashkilotlar hamda mijozlarning kelajakka nisbatan kutilmalari ijobjiy bo'ladi, kredit talablari yumshatiladi, tavakkalchilikka bo'lgan moyillik kuchayadi va natijada tizimli xatarlar paydo

bo'la boshlaydi. Makroprudensial siyosatning erta aralashuvi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar moliyaviy inqiroz oqibatidagi yo'qotishlarga nisbatan ancha kam bo'ladi.

Shu sababli, Markaziy bank moliyaviy siklning boshlang'ich davrida makroprudensial siyosat choralarini qo'llashga intiladi.

## 2-chizma. Tarkibiy tizimli xatarlar



Izoh: Mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar (MTAMB), Kichik banklar (KB), Xalqaro tizimli ahamiyatga molik banklar (XTAMB), Sug'urta kompaniyalari (SK), Nobank kredit tashkilotlari (NBT), Lizing kompaniyalari (LK).

Manbalar: XVJ, Markaziy bank.

Markaziy bank moliya tizimidagi iqtisodiy faoliyatning pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan juda muhim xavflarnigina tizimli xatar deb qaraydi. Shuning uchun, moliya tizimidagi ayrim muammolar (masalan, taklif qilinadigan xizmatlari boshqa muassasalar tomonidan tez almashtirilishi mumkin bo'lgan kichik moliyaviy tashkilotning defolt holatiga kelishi) tizimli xatar sifatida qaralmaydi.

Shundan kelib chiqib, **Markaziy bankning makroprudensial choratadbirlarining maqsadi moliya tizimidagi** har qanday xatarlarni bartaraf etish emas, balki faqatgina **tizimli xatarlarni cheklash** hisoblanadi.

## **II. Makroprudensial siyosatning bosh va oraliq maqsadlari**

Makroprudensial siyosatning bosh maqsadi **O'zbekistonda moliya tizimining barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shishdir**. Moliya tizimi barqarorligi iqtisodiy o'sishga erishishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, bosh maqsadga erishish uchun bir nechta oraliq maqsadlarni aniqlab olish zarur (3-chizma). Shunga ko'ra, Markaziy bank tomonidan O'zbekiston moliya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va xalqaro tajribani<sup>5</sup> inobatga olgan holda, makroprudensial siyosatning beshta oraliq maqsadlari belgilangan.

### **3-chizma. Makroprudensial siyosatning oraliq maqsadlari**



Manba: Markaziy bank.

**Leveraj va kreditlar o'sish sur'atini moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sirini oldini olish.** Iqtisodiyotda kreditlarning keskin o'sishi aktivlar narxlarining oshishiga olib keladi. Iqtisodiyotning qisqarish davrida aktivlar narxining pasayishi aktivlar bozorida “pufakchalar” paydo bo'llishiga sabab bo'ladi. Bu esa, moliyaviy inqirozlarga olib keluvchi asosiy sabablardan biri

<sup>5</sup> Ushbu oraliq maqsadlarni belgilashda ilg'or xalqaro amaliyot, ayniqsa, Yevropa tizimli xatarlar kengashining (YTXK) tavsiyalarini inobatga olinigan.

hisoblanadi. Yuqori leveraj esa, bu inqirozlarning xavfini yanada kuchaytirish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, Markaziy bank davriy tizimli xatarlarning oldini olish va shoklarga bank tizimining bardoshlilagini oshirish maqsadida kapital buferlari va boshqa vositalardan foydalanadi.

**Dollarlashuvning tizimli xatarlarini cheklash.** Dollarlashuv darajasining yuqoriligi nafaqat banklar, balki iste'molchilarda ham tizimli xatarlar vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

**Muddatlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni hamda bozor nolikvidliligin kamaytirish.** Qisqa muddatli va barqaror bo'Imagan moliyalashtirish manbalariga bog'lanib qolish shoshilinch aktivlar sotuviga hamda bozor nolikvidliligiga olib kelishi mumkin. Makroprudensial choralar aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi davriy nomutanosibliklarni kamaytirishga va moliyaviy bozor ishtirokchilarining likvidliligin kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Tavakkalchiliklarning konsentratsiyalashuvini tartibga solish.** Bevosita konsentratsiya xatari banklarning nomoliyaviy sektorga bo'lgan yirik tavakkalchiligi natijasida kelib chiqishi mumkin. Moliyaviy tashkilotlarning o'zaro bog'liqligi hamda iqtisodiy tarmoqlarga nisbatan umumiy tavakkalchiliklar moliya tizimida zanjirli oqibatlarni hamda bilvosita konsentratsiya xatarini keltirib chiqaradi.

Markaziy bank bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhiга tavakkalchilikning eng ko'p miqdorini belgilash orqali ushbu xatarlarni kamaytiradi hamda konsentratsiyalashuv darajasini cheklaydi.


**Tizimli ahamiyatga molik banklar tomonidan haddan ziyod ko'p xatarlar jamlanishining oldini olish.** Davlat ulushiga ega bo'lgan yirik banklar hukumat tomonidan himoya qilinishiga ishongan holda, haddan ziyod xatarlarga moyilligi paydo bo'ladi. O'zbekistonda yirik banklarda davlat ulushining yuqoriligi ular faoliyatidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar butun moliya tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, Markaziy bank tizimli ahamiyatga molik banklar uchun alohida kapital buferlarni qo'llashi mumkin.

### **III. Makroprudensial siyosat vositalari**

Makroprudensial siyosat vositalari aniqlangan tizimli xatarlarni oldini olishda qo'llaniladi. Markaziy bank har bir oraliq maqsadga erishish uchun bir qator makroprudensial vositalardan foydalanadi (1-ilova).

Bunda, makroprudensial siyosat vositalari uchta turga bo'linadi: kapital, likvidlilik hamda qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar.

#### **4-chizma. Makroprudensial siyosat vositalarining turlari**



#### **A. Kapital vositalari**

##### **Kontrsiklik kapital buferi (CCyB)**

Kontrsiklik kapital buferi birinchi darajali asosiy kapitalga asoslangan vosita bo'lib, tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 0–2,5 foizi oralig'ida bo'lishi mumkin<sup>6</sup>. Ushbu vosita bank tizimida kreditlarning keskin o'sishi davrida to'planadigan tizimli xatarlarga bardoshliligin oshirish maqsadida foydalaniladi (davriy tizimli xatarlar).

Kontrsiklik kapital buferi iqtisodiyotni kreditlar bilan ta'minlash darajasini bir maromda saqlab qolish hamda moliyaviy siklning pasayish davridagi yo'qotishlarni yumshatishga hissa qo'shamdi. Shu orqali, kontrsiklik kapital buferi bank tizimining asosiy funksiyasini bajarishga ko'maklashadi.

<sup>6</sup> Bugungi kunda bir qator mamlakatlar xatarlarning mo'tadil holatida, ya'ni xatarlar ro'yobga chiqmagan holatda ijobjiy kontrsiklik kapital buferini joriy etish yo'lini tanlamoqda. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi jiddiy shoklar molija tizimiga xavf tug'dirishdan avval buferning iqtisodiy o'sish davrlarida yaratib olish hisoblanadi.

Bundan tashqari, kontrsiklik kapital buferi kredit narxini oshirish orqali kredit talabiga<sup>7</sup> ta'sir ko'rsatib, moliyaviy siklning mo'tadillashishiga ko'maklashadi (narx kanali).

Markaziy bank moliyaviy siklning ko'tarilishi davrida kontrsiklik kapital bufer darajasini oshirishga, iqtisodiy qisqarish davrida esa real iqtisodiyotni yangi kreditlar bilan ta'minlash uchun pasaytirishga e'tibor qaratadi<sup>8</sup>.

### **Mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi (D-SIBs)**

Mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi ushbu banklar defolt bo'l shining butun bank tizimi va real iqtisodiyotga salbiy tashqi ta'sirlarini cheklash maqsadida ishlataladi.

Mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklarning defolt holatiga tushib qolishining salbiy ta'sirlari kredit tashkilotlari o'rtasidagi bevosita yoki bilvosita aloqalar orqali bank tizimiga tarqaladi. Ushbu salbiy ta'sirlarni cheklash maqsadida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hisobiga ushbu banklar o'zlariga yanada ko'proq tavakkalchilikni oladilar va natijada, tavakkalchilining salbiy ta'sirlari kuchayib boradi ("Too Big to Fail" muammosi).

Shuning uchun, ushbu buferning asosiy maqsadi mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklarning yo'qotishlarini qoplash hisoblanadi.

Mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi kredit narxini oshirish orqali moliyaviy siklning mo'tadillashishiga ta'sir qilsa-da, lekin bu uning asosiy maqsadi hisoblanmaydi (narx kanali)<sup>9</sup>. Ushbu bufer darajasi har bir tizimli ahamiyatga molik bank uchun uning tizimli ahamiyatlilik darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

### **Tizimli xatar buferi**

Tizimli xatar buferi – bu tarkibiy tizimli xatarlarni yumshatish va oldini olish uchun mo'ljallangan makroprudensial siyosatning kapital vositasi hisoblanadi.

Tizimli xatar buferi boshqa makroprudensial vositalar orqali qamrab olinmagan tizimli xatarlar mavjud bo'lganda, ularni bartaraf etish maqsadida

---

<sup>7</sup> Kapital vositalarning transmission kanallari qismiga qarang.

<sup>8</sup> Moliyaviy siklning ko'tarilish va qisqarish bosqichlari davriy tizimli xatarlarning bir qator miqdoriy ko'rsatkichlari (masalan, kreditning YalMga nisbati tafovuti, kreditlarning o'sishi, qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati va aktivlar narxining uzoq muddatli trendidan chetlashishi) yordamida aniqlanadi. Kontrsiklik kapital buferi darajasini oshirish va kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun turli ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

<sup>9</sup> Kapital vositalarning transmission kanallari qismiga qarang.

barcha banklar yoki ma'lum bir banklar guruhiba qo'shimcha kapital talabini joriy qilish orqali qo'llaniladi.

Tizimli xatar buferi boshqa makroprudensial kapital vositalari kabi ikkita transmission kanal - bardoshlilik va narx kanallari orqali tizimli xatarlarni pasaytiradi. Bunda transmission kanal orqali tarkibiy tizimli xatarlarning yuzaga chiqishi natijasidagi yo'qotishlarning qoplanishi hisobiga moliya tizimining bardoshlilagini oshirishi mumkin. Tizimli xatar buferi kredit narxini oshirish orqali moliyaviy siklga ham ta'sir qilishi mumkin (narx kanali).

Shuningdek, tizimli xatar buferi ma'lum bir sektordan (masalan, ko'chmas mulk sektori, iqlim o'zgarishi bevosita ta'sir qiladigan sektorlar va boshqalar) kelib chiqishi mumkin bo'lgan tarkibiy tizimli xatarlarni cheklash uchun ham ishlatilishi mumkin. Markaziy bank tizimli xatar buferidan foydalanishda ushbu vositaning qo'llanishi mumkin bo'lgan qamrovini hamda qayd etilgan ikkala kanalning transmissiyasini ham inobatga oladi.

### **Leveraj koeffitsiyenti**

Leveraj koeffitsiyenti – bu bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich bo'lib, birinchi darajali kapitalning umumiyligi aktivlar va balansdan tashqari aktivlar yig'indisiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Leveraj koeffitsiyenti davriy ravishda kamayishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikka tortilgan aktivlarni hisobga olmasligi bilan kapital monandlilik talablaridan farq qiladi. Shuning uchun, leveraj koeffitsiyenti aktivlarning kapitalga nisbatan nomutanosib ravishda oshib ketishiga qarshi oddiy va samarali vosita hisoblanadi.

Leveraj koeffitsiyenti yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni yumshatish uchun kapital zaxiralarni saqlab qolish orqali bardoshlilikni oshiradi. Yuqori darajadagi kapital talablari narx kanali orqali kredit narxiga ta'sir ko'rsatadi.

Leveraj koeffitsiyenti tarkibiy tizimli xatarlarga yo'naltirilgan vosita sifatida ham ishlatilishi mumkin (masalan, mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar uchun). Bunda ushbu vosita banklar bo'yicha alohida tabaqlashtirilgan koeffitsiyentlarni qo'llash orqali foydalaniladi.

## **B. Likvidlilik vositalari**

### **Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR)**

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti banklarning qisqa muddatli likvidlilik shoklariga bardoshlilagini oshirishuvchi vosita hisoblanadi<sup>10</sup>. Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbatli sifatida aniqlanadi.

Likvidlilikni qoplashning me'yoriy koeffitsiyentining asosiy mohiyati shundaki, bank xatarli ssenariy ostida keyingi 30 kun ichida qisqa muddatli likvidlilik ehtiyojlarini to'lash uchun yetarli darajada yuqori sifatli likvid aktivlarga ega bo'lishi lozim.

Bunda 30 kunlik muddat banklar uchun likvidlilik manbalarini qayta ko'rib chiqish, boshqa manbalarni topish hamda shu yo'l bilan qisqa muddatli nolikvidlilik tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan qochish uchun mo'ljallangan.

Bir yoki bir nechta kredit tashkilotlarining nolikvidliligi bank tizimiga tarqalishi oqibatida tarkibiy tizimli xatarlarning paydo bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyentining asosiy transmission kanali banklarning bardoshlilagini oshirish hisoblanadi.

### **Sof barqaror moliyalashtirishning me'yoriy koeffitsiyenti (NSFR)**

Sof barqaror moliyalashtirishning me'yoriy koeffitsiyenti banklarning moliyalashtirish tuzilmasi bardoshlilagini oshirish va barqaror moliyalashtirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Sof barqaror moliyalashtirishning me'yoriy koeffitsiyenti barqaror moliyalashtirishning mavjud summasini barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga nisbatli sifatida aniqlanadi. Bank tizimining asosiy funksiyalaridan biri uzoq muddatli aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar (depozitlar va boshqa moliyalashtirish manbalari) o'rtasidagi muddatlarni o'zaro moslashtirish hisoblanadi.

Biroq, muddatlar o'rtasidagi nomutanosiblikni to'g'ri boshqarilishda xavfning mavjudligi sababli uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish uchun qisqa muddatli majburiyatlarga haddan ortiq tayanmaslik lozim. Ushbu holatda, bank mablag'larining keskin pasayishi muayyan bank uchun xavf tug'dirishi mumkin. Agar bunday holat keng miqyosli bo'lsa, bank tizimi uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

---

<sup>10</sup> IMF, Staff Guidance Note on Macroprudential Policy – Detailed Guidance on Instruments, 2014.

Shu sababli, sof barqaror moliyalashtirish me' yori koeffitsiyentini ishlab chiqishning asosiy maqsadi bankning uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini qoplash uchun bir yil davomida barqaror moliyalashtirishning tegishli manbalariga ega bo'lishini ta'minlash hisoblanadi.

### **Kreditlarning depozitga nisbati (LTD)**

Kreditlarning depozitga nisbati ko'rsatkichining asosiy maqsadi jami kreditlar darajasini jami depozitlar darajasiga nisbatan cheklash orqali bank tizimining bardoshliligini saqlab qolishdir. Shuning uchun, kreditlarning depozitga nisbati limiti banklarga barqaror moliyalashtirish manbai sifatida depozitlarning ma'lum bir ulushiga tayanish talabini yuklaydi. Bu likvidlilik xatariga qarshi oddiy vosita bo'lib, kreditlar yoki depozitlarning muddatlari tarkibini hisobga olmaydi.

### **D. Qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar**

#### **Kredit summasini garov summasiga nisbati cheklovi (LTV)**

Kredit summasini garov summasiga nisbati cheklovi qarz oluvchilar olishi mumkin bo'lgan maksimal kredit summasini garov sifatida xizmat qiluvchi ko'chmas mulk qiymatiga nisbatan cheklash orqali qarz oluvchilarning xatarlarga bardoshliligini oshirishga xizmat qiladi. Kredit summasini garov summasiga nisbati cheklovi qarz oluvchi olishi mumkin bo'lgan kredit miqdorini bevosita kamaytiradi.

Xususan, kredit summasini garov summasiga nisbati cheklovi uy-joyga bo'lgan talabni pasaytiradi, kreditlar va uy-joy narxlarining o'sishini cheklaydi va shu tarzda kredit siklini yumshatadi. Bundan tashqari, kredit summasini garov summasiga nisbati cheklovi qarz oluvchining ko'chmas mulkda ko'proq o'zining kapitaliga ega bo'lishini ta'minlash orqali qarz oluvchining bardoshliligini oshiradi va shu orqali defolt ehtimoli (PD) va defolt holatida yo'qotishlar hajmini (LGD) kamaytiradi.

#### **Kredit to'lovining yoki qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati cheklovi (PTI/DSTI)**

Kredit to'lovining yoki qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati cheklovi qarz oluvchilarning daromadiga nisbatan qarzga xizmat ko'rsatish to'lovlarini cheklash orqali qarz oluvchilarning bardoshliligini oshirishga qaratilgan. Ushbu cheklovlar qarz oluvchining daromadiga nisbatan olishi mumkin bo'lgan kredit summasini kamaytiradi.

Natijada, ushbu cheklov kredit summasini garov summasiga nisbati cheklovi kabi kreditga bo'lgan talabni pasaytiradi, kreditlar o'sishini cheklaydi hamda shu orqali kredit siklini yumshatadi.

Kredit to'lovining yoki qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati cheklovining kredit summasini garov summasiga nisbati cheklovidan afzalligi uy-joy narxining oshishi holatida namoyon bo'ladi. Bunday holatda, kredit summasini garov summasiga nisbati cheklovini qat'iy tashtirishga to'g'ri keladi. Ko'chmas mulk narxlarining o'sishi aholi ixtiyoridagi daromadning o'sishiga nomutanosib bo'lgan holatda kredit to'lovining yoki qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati cheklovining esa o'z-o'zidan samaraliligi saqlanib qolinadi (automatic stabilizer, IMF, 2014).

### **Kredit yoki qarz summasini daromadga nisbati cheklovi (LTI/DTI)**

Kredit yoki qarz summasini daromadga nisbati cheklovi uy xo'jaliklari olishi mumkin bo'lgan qarz summasini daromadga nisbatan qat'iy belgilangan baravar miqdori bilan cheklaydi. Bunda, kredit summasini daromadga nisbati cheklovi ma'lum bir kreditni qamrab oladigan bo'lsa, qarz summasini daromadga nisbati cheklovi jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlarining kengroq doirasini hisobga oladi.

Kredit yoki qarz summasini daromadga nisbati cheklovining transmission mexanizmlari kredit to'lovining yoki qarzga xizmat ko'rsatish miqdorining daromadga nisbati cheklovlarining transmission mexanizmlariga juda o'xshash. Bunday cheklovlar qarz oluvchilarning daromad shoklariga bardoshliligini oshirishga va shu bilan qarz beruvchilarning barqarorligini bilvosita kuchaytirishga qaratilgan.

## **IV. Makroprudensial siyosat vositalarining transmission kanallari**

Tegishli makroprudensial siyosat vositalarini tanlash va moslashtirishda (calibration) ularning har bir guruhi bo'yicha transmission kanallarini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **A. Kapital vositalarning transmission kanallari**

Markaziy bank tizimli xatarning yuzaga chiqishi davrida makroprudensial kapital vositalarini qo'llash orqali kapital zaxiralarini ko'paytirishga harakat qiladi. Bunda, makroprudensial kapital vositalari bank tizimining bardoshliligini oshiradi va natijada, bevosita moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Ushbu kapital zaxiralaridan ikki maqsadda:

- birinchidan, yuzaga kelgan yo'qotishlarni qoplash;
- ikkinchidan, moliyalashtirish yetarli bo'Imagan holatda yangi kreditlar ajratishga imkoniyat yaratish va shu orqali real iqtisodiyot hamda barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalanish mumkin.

Bu, Markaziy bank makroprudensial kapital vositalarining eng muhim transmission kanali hisoblanadi. Bundan tashqari, makroprudensial kapital vositalari moliyaviy davriylikni yumshatishga ta'sir ko'rsatish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ham qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, ushbu vositalar kutilmalar kanali orqali banklarning xatarlarni boshqarish uslubiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Makroprudensial kapital vositalarining kredit siklini yumshatishga ta'siri ushbu vositalarning yana bir transmission kanali hisoblanadi. Banklarning kapital darajasi minimal talabdan yuqori bo'Imagan holatda, kapital buferlari to'rt xil usulda yaratilishi mumkin (CGFS, 2012):

- aksiyalar chiqarish orqali yangi kapital jalg qilish;
- foydani taqsimlashni kamaytirish (masalan, dividendlar va bonuslar);
- kreditlash spredlarini oshirish (yangi kreditlar uchun foiz stavkalar);
- tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar hajmini kamaytirish (kapitalning monandlik koeffitsiyentini hisoblash formulasidagi maxraj).


Dastlabki uchta usul kreditlash spredlarini (yangi kredit xarajati) oshiradi hamda shu orqali kredit talabining pasayishiga olib keladi (narx kanali). Oxirgi usul, ya'ni tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar hajmining kamayishi kredit taklifini pasaytiradi. Sababi, banklar yangi kredit ajratmasligi yoki tavakkalchiligi pastroq bo'lgan kreditlarni moliyalashtirish

orgali kredit portfellarini qayta muvozanatlashtirishga harakat qilishlari mumkin (miqdor kanali) (5-chizma).

Kapital bufer talablari yengillashtirilganda banklar bo'shagan kapitaldan foydalanadi va yuqorida qayd etilgan mexanizmlarning aksi yuz berishi mumkin. Ushbu holat kreditlar taklifining oshishiga va kredit narxining pasayishiga ta'sir qiladi. Bu esa, o'z navbatida kreditlash faoliyatining o'sishiga olib kelishi mumkin (6-chizma).

Kutilmalar kanali orqali kapital vositalarini faollashtirmsandan ham makroprudensial siyosat maqsadlariga erishish mumkinligi ushbu kanalning Markaziy bank uchun muhim ekanligidan dalolat beradi. Markaziy bank o'zining ishonchlilik va kommunikatsiyasiga ko'ra banklar va bozorga rejalashtirilgan kapital choralari haqida signal beradi hamda shu orqali banklarga xatarlarni boshqarish uslubini o'zgartirish uchun imkoniyat yaratib beradi.

#### **5-chizma. Iqtisodiy o'sish davrida (boom phase) kapital va likvidlilik vositalarining transmission kanallari**



Manba: Markaziy bank.

## **B. Likvidlilik vositalarining transmission kanallari**

Markaziy bankning makroprudensial likvidlilik hamda kapital vositalarining transmission kanallari deyarli o'xshash (5 va 6-chizmalar). Makroprudensial likvidlilik vositasining birinchi to'g'ridan-to'g'ri transmission kanali moliyaviy tizim bardoshlilagini oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashishdir. Markaziy bankning likvidlilik vositalari banklardan ko'proq likvid aktivlarga ega bo'lishini, likvid bo'limgan aktivlarini kamaytirishni va kredit muddatlarini qisqartirishni talab etadi (IMF, 2014).

Bu esa, likvidlilik stress holatida banklarning likvidlilikka bo'lgan ehtiyojlarini qoplash uchun aktivlarning shoshilinch sotuvi xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Markaziy bankning likvidlilik vositalari aktivlarning shoshilinch sotuvi va o'ta salbiy ta'sirlarning real iqtisodiyotga o'tish xavfini yumshatish orqali tarkibiy tizimli xatarlarni cheklaydi.

Makroprudensial likvidlilik vositalarining ikkinchi transmission kanali kredit siklini yumshatishdir. Banklar likvidlilik vositalarining qat'iylashishiga javoban 1) depozit jalb qilishni (barqaror moliyalashtirish) oshirishi yoki 2) yangi kreditlar ajratishni qisqartirishi mumkin.

Depozitlarni jalb qilish sekin o'sish xarakteriga ega bo'lib, iqtisodiy o'sish davrida katta xarajatlarsiz bunday mablag'larni ko'paytirish oson bo'lmaydi. Shuning uchun, yirik depozit bazasiga ega bo'limgan banklar kredit o'sishini sekinlashtirish uchun yangi kreditlar ajratishni qisqartirishlariga to'g'ri keladi.


Bundan tashqari, odatda likvid aktivlarning foiz stavkalari nolikvid aktivlarga nisbatan pastroq darajada shakllanishi sababli likvid aktivlarni ko'paytirishga qaratilgan likvidlilik me'yordi (masalan, likvidlilikni qoplash me'yor koeffitsiyenti) banklarni yangi kreditlar ajratishda foizlarni oshirishga undaydi.

Bu esa, kredit olishga bo'lgan talabga ta'sir ko'rsatib, yangi kreditlar ajratishni pasaytiradi. Moliyaviy stress davrida ushbu vositalar banklararo likvidlilikni rag'batlantirish va kreditlar taklifini ta'minlashni cheklash uchun qo'llanmasligi lozim.

Aks holda, likvidlilik vositalarining qat'iylashtirilishi banklararo bozorning muzlashiga, aktivlarning shoshilinch sotuviga va qarz yukining kamayishiga olib kelishi mumkin (IMF, 2014).

Shuningdek, stress davrida likvidlilik vositalarining qo'llanilishi moliyalashtirish xarajatlarini kamaytiradi va bu o'z o'rnila, samarali kreditlashga olib keladi. Kutilmalar kanali Markaziy bankning makroprudensial likvidlilik vositalari uchun ham muhim hisoblanib, ushu kanal makroprudensial kapital vositalari misolida bo'lgani kabi namoyon bo'ladi.

#### **6-chizma. Iqtisodiy qisqarish davrida kapital va likvidlilik vositalarining transmission kanallari**



Manba: Markaziy bank.

#### **D. Qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalarning transmission kanallari**


Qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar qarz oluvchilarning garov qiymati (LTV) yoki daromadlariga (DSTI va PTI misolida) ko'ra olishlari mumkin bo'lgan kredit qiymatini cheklash orqali bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar qarz oluvchilarning buferlarini ko'paytirish va defolt ehtimolini (PD) kamaytirish orqali qarz oluvchilarning bardoshliligini oshiradi.

Kredit summasini garov summasiga nisbati (LTV) ko'rsatkichi qarz oluvchining ko'chmas mulki yoki boshqa turdag'i garovi (kapitali) kattaroq qiymatga, to'lovning daromadga nisbati (DSTI yoki PTI) cheklovlari esa qarz oluvchi majburiyatlarni qoplash uchun ko'proq o'z ixtiyoridagi daromadga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

LTV cheklovi mavjud bo'lganda, garov qiymatida o'z mablag'inining ulushi kattaroq bo'lganligi tufayli defolt holatida yo'qotishlar hajmi pastroq bo'ladi. Banklar qarz oluvchilar bo'yicha kredit xatarlariga duch kelganda, qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar bir vaqtning o'zida banklarning ushbu xatarlarga nisbatan bardoshliligini oshiradi.

Qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar qarz oluvchi to'lashi mumkin bo'lgan kredit qiymatiga bevosita ta'sir qilish orqali kredit talabini kamaytiradi. Bu esa, kredit taklifining kamayishiga olib keladi va buning oqibatida aktivlar narxlarining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada, kredit va aktivlar narxlarining prosiklik qayta aloqa mexanizmi mo'tadillashadi (IMF, 2014).

#### **7-chizma. Qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalarning transmission kanallari**



Manba: Markaziy bank.

Kutilmalar kanali qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalarda boshqa vositalarga nisbatan yanada muhimroq hisoblanadi. Chunki, qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalarni joriy etish to'g'risidagi ma'lumotlar kredit faoliyatining tezlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, Markaziy bank qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalarni joriy etish bo'yicha kommunikatsiyaga ehtiyyotkorlik bilan yondashadi.

## V. Makroprudensial siyosatni amalga oshirish

### 5.1. Makroprudensial siyosatni amalga oshirishning asosiy tamoyillari

Markaziy bank makroprudensial siyosatni amalga oshirishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

**Mustaqillik.** Makroprudensial siyosat Markaziy bankning boshqa funksiyalaridan, xususan, pul-kredit siyosati va prudensial nazorat, shuningdek, boshqa davlat tashkilotlarining aralashuvidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Biroq, mustaqillik tamoyili muvofiqlik tamoyiliga to'sqinlik qilmasligi lozim. Bunda Markaziy bankning bank tizimi barqarorligini ta'minlash bo'yicha faoliyati narxlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak<sup>11</sup>.

**Shaffoflik.** Markaziy bank makroprudensial siyosatni amalga oshirishda moliya tizimining barcha ishtirokchilari va jamoatchilik uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tushunarli va ochiq bo'lishini ta'minlaydi. Makroprudensial vositalarining kutilmalar transmission kanalidan foydalanish maqsadida Markaziy bank maqsadli auditoriyani tegishli siyosat bo'yicha qabul qilingan qarorlar va me'yoriy o'zgarishlar to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilib boradi (moliyaviy barqarorlikka xavf tug'diradigan holatlar bundan mustasno) hamda bu bo'yicha tushuntirishlar berib boradi.

**Harakatsizlikdan (munosabat bildirmaslik) qochish.** Makroprudensial choralarni ertaroq qo'llashdagi ehtimoliy yo'qotishlar bir dona yuz bergen moliyaviy inqirozdagi yo'qotishlarga nisbatan ancha kichik hisoblanadi. Shunga ko'ra, Markaziy bank tizimli xatarlar aniqlanganidan so'ng o'z vaqtida makroprudensial choralarni ko'rib boradi.

**Qat'iy qoidaga asoslanmagan (moslashuvchan) boshqaruv.** Markaziy bank siyosatining qarorlari, birinchi navbatda, qoidalarga asoslanadi. Biroq, xatar ko'rsatkichlarining ogohlantiruvchi ishoralari mukammal bo'lmasligi hamda turli ko'rsatkichlar bir qator transmission kanallar orqali turli xulosalarga olib kelishi mumkinligi sababli, Markaziy bank ushbu qarorlarni qabul qilishda aniq ma'lum bir mexanizmga tayanmaydi. Bunday hollarda, qat'iy qoidalarga asoslangan tahlillar (ko'rsatkichlar oldindan o'rnatilgan chegaralarga yetganda) Markaziy bankning ekspert xulosasi asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi Qonun, 5-modda.

**Muvofiqlik.** Makroprudensial siyosatning samaradorligi Markaziy bankning yoki tegishli davlat organlarining boshqa siyosatlari bilan o'zaro aloqadorligiga bog'liq. Shu sababli, Markaziy bank makroprudensial siyosatning boshqa siyosatlari bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlaydi.

**Mutanosiblik.** Makroprudensial vositalarini qo'llashda moliya institutlariga muayyan talablarni hisobga olib, Markaziy bank ushbu talablarni har bir moliya institutining umumiy tizimli xatardagi hissasiga mutanosib ravishda amalga oshirishi mumkin.

**Tartibga solish arbitrajdan qochish.** Moliyaviy tizim ishtirokchilari qoidalarni chetlab o'tish maqsadida nisbatan kamroq tartibga solinadigan bozor segmentlariga o'tish orqali nisbiy ustunlikka ega bo'lmashiklari lozim. Ushbu arbitrajdan qochish qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish va moliya bozorining barcha ishtirokchilariga talablarni bir maromda qo'llash orqali amalga oshiriladi.

## 5.2. Makroprudensial siyosatni amalga oshirish bosqichlari

Markaziy bankning makroprudensial siyosatini amalga oshirish uzlusiz davom etadigan to'rt bosqichni o'z ichiga oladi (8-chizma).

1. Tizimli xatarlarni aniqlash va baholash;
2. Vositalarni tanlash va ularni moslashtirish;
3. Qaror qabul qilish va vositalarni qo'llash;
4. Siyosat ta'sirini baholash.

### 8-chizma. Makroprudensial siyosatni amalga oshirish bosqichlari



Manba: Markaziy bank.

## **Tizimli xatarlarni aniqlash va baholash**

Mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial tizimli xatarlarni aniqlash hamda ularni baholash Markaziy bankning makroprudensial siyosatni amalga oshirishdagi dastlabki qadam hisoblanadi. Tizimli xatarlar bir qator miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalangan holda aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar asosiy va qo'shimcha to'plamlarga bo'linadi. Asosiy ko'rsatkichlar xatarlarni baholash jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur ko'rsatkichlar Markaziy bankning makroprudensial vositalarini qo'llash bo'yicha dastlabki mulohazalar uchun asos bo'la oladi (XVJ, 2014)<sup>12</sup>.

Asosiy ko'rsatkichlar bergen ogohlantiruvchi ishoralar doim ham mukammal bo'lmasligi mumkin. Shu sababli, Markaziy bank tizimli xatarlar bo'yicha kengroq ma'lumotga ega bo'lish uchun qo'shimcha ko'rsatkichlar to'plamidan foydalanadi. Har xil ko'rsatkichlar ba'zida turli xulosalarga olib kelishi mumkinligi sababli ba'zan tizimli xatarlarni aniqlash tahlili yuqori aniqlikda bo'lmaydi. Shunga ko'ra, aniq xulosalar chiqarish maqsadida qoidalarga asoslangan tahlil (ko'rsatkichlar belgilangan chegaralarga yetganda) Markaziy bankning ekspertlar mulohazalari bilan mustahkamlanadi. Mazkur bosqichda qayd etilgan ekspertlar mulohazalarining o'rni muhimligini inobatga olgan holda, Markaziy bank bozor ma'lumotlari, maxsus so'rovnomalar, prudensial nazorat va boshqa manfaatdor tomonlarning manbalaridan ham foydalanadi.

Bundan tashqari, Markaziy bank bank tizimining tizimli xatarlarga bardoshliligini baholash uchun makro stress-test vositasidan foydalanadi. Moliya tizimining amaldagi prudensial talablarga ko'ra inqiroz yoki boshqa tizimli xavf yuzaga kelganda iqtisodiyotning real sektorini kredit bilan ta'minlashda davom etishi hamda ushbu hodisa oqibatlarini kuchaytirmasligi bank tizimining tizimli xatarlarga bardoshliligini anglatadi.

Tizimli xatarlarni aniqlash va tahlil qilish makroprudensial siyosatni amalga oshirishning eng muhim bosqichlaridan biri ekanligini hisobga olgan holda, Markaziy bank tizimli xatarlarni baholash natijalarini yiliga ikki marta chop etiladigan Moliyaviy barqarorlik sharhida muntazam tarzda taqdim etib boradi.

## **Vositalarni tanlash va moslashtirish**

Aniqlangan tizimli xatarlarning ta'sirini yumshatish va bartaraf etish uchun Markaziy bankning makroprudensial siyosat vositalarini qo'llash zarurati paydo bo'ladi. Vositalarni tanlash va moslashtirish bosqichida

---

<sup>12</sup> Misol uchun, asosiy ko'rsatchilardan biri bo'lgan kreditning YalMga nisbati tafovuti ko'rsatkichi davriy tizimli xatar uchun qo'llaniladi.

Markaziy bank, birinchi navbatda, qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar ro'yxatini shakllantiradi. Ushbu vositalar aniqlangan tizimli xatarlar (davriy yoki tarkibiy) hamda ularga mos oraliq maqsadlaridan kelib chiqqan holda ishlatalishi mumkin.

So'ngra, qo'llanishi mumkin bo'lgan vositalarning muvofiqligi va samaradorligini baholash maqsadida ularning transmission kanallari tahlil qilinadi. Makroprudensial vositalarning ikki eng muhim transmission kanallari moliyaviy tizim bardoshliligini oshirish hamda moliyaviy siklni yumshatish hisoblanadi.

Biroq, bardoshlilikni oshirishdan maqsad inqiroz davrida bank tizimida ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash yoki iqtisodiyotning real sektorini kredit bilan ta'minlashni rag'batlantirish bo'lishi mumkin. Bunda barqarorlikni oshirish bevosita bank tizimiga (kapital buferlari) yoki bilvosita qarzdorlarning bardoshliligini oshirishga (qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalar) qaratilgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, kredit siklini yumshatishda ba'zi vositalar boshqa vositalarga (qarzdorlarga yo'naltirilgan yoki kapital vositalari) nisbatan samaraliroq hisoblanadi.

Bundan tashqari, har bir vositaning asosiy transmission mexanizmi va qo'shimcha transmission kanallari mavjud bo'lib, muayyan bir xatarga mos keladi. Shu sababli, mos vosita yoki vositalar to'plamini tanlash murakkab jarayon ekanligini hisobga olib, Markaziy bank muayyan xatar profiliغا eng munosib vositalarni tanlashga intiladi. Ushbu jarayon tartibga solish arbitrajining ehtimoliy kanallarini hamda vositalarning moslashtirilishini baholash bilan yakunlanadi.

### **Qaror qabul qilish va vositalarni qo'llash**

Makroprudensial vositalarni joriy etish bo'yicha qaror Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi. Makroprudensial vositalarni joriy qilishda vositalarni tanlash va moslashtirish bosqichida ularning darajasi moslashtirilib, qamrovi esa mos tarzda oldindan belgilab qo'yilganligi nazarda tutiladi. Ushbu bosqichda makroprudensial vositalarning kutilmalar transmission kanaliga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu sababli, Markaziy bank kutilmalar kanalidan imkon qadar to'liq foydalanishni ta'minlash maqsadida joriy etilgan har bir vosita bo'yicha keng jamoatchilik va moliyaviy tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi.

Makroprudensial siyosat maqsadlariga vositalarni joriy etgunga qadar erishish mumkinligi kutilmalar kanalining muhimligini ko'rsatadi. Banklar Markaziy bankning e'lon qilingan kutilmalariga (masalan, kelajakda kapital

vositasini qo'llash) asoslanib o'zlarining xatarlarni boshqarish uslublarini darhol o'zgartirishlari mumkin.

Shuningdek, qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalarni joriy etish to'g'risidagi ma'lumotlar kredit faoliyatining tezlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, Markaziy bank qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalarni joriy etish bo'yicha kommunikatsiyaga ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Bundan tashqari, makroprudensial vositalarni joriy etish va qarorlar qabul qilish bosqichida makroprudensial siyosatning Markaziy bank tomonidan olib boriladigan boshqa siyosatlar bilan o'zaro munosabatlarini va muvofiq harakatlar amalga oshirish zaruriyatini hisobga oladi (qarang 5.3. bob).

### **Siyosat ta'sirini baholash**

Ushbu bosqich quyidagilarni baholash orqali amalga oshiriladi:

- 1) vositalarning bardoshlilikka ta'siri darajasi;
- 2) kredit va aktivlar narxi dinamikasiga ta'siri;
- 3) bozor ishtirokchilarining xatarlarni boshqarish uslubiga ta'siri;
- 4) tartibga solish arbitraji va oqimlar.

Xususan, amaldagi hamda yangi ajratilgan kreditlar qoldig'ini kreditni garovga nisbatlarining (LTV) avvalgi taqsimotiga ko'ra tahlil qilish orqali qarzdorlarga yo'naltirilgan vositalarning bardoshlilikka ta'sirini baholash mumkin.

Shuningdek, Markaziy bank makro stress-testni amalga oshirish orqali bardoshlilikni baholaydi. Kredit va aktivlar narxi dinamikasiga bo'lgan ta'sirini vositalarni qo'llash uchun signal sifatida foydalaniladigan xatar ko'rsatkichlari, aktivlar narxi va kreditlar o'sishini baholash orqali aniqlash mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni baholash uchun ham qo'llaniladi.

Tartibga solish arbitraji va oqimlar nazoratga olinmagan mahalliy moliyaviy sektor hamda transchegaraviy kredit faoliyatidagi o'zgarishlar orqali baholanadi. Shuningdek, joriy qilingan vositalar ta'sirini baholash ularni qachon yengillashtirish lozimligini tahlil qilishga yordam beradi.

Shu bilan birga, mazkur baholash makroprudensial siyosatning vositalarni tanlash, ishlab chiqish va moslashtirish kabi bosqichlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, ushbu bosqichning

asosiy maqsadi vositalarning tizimli xatarlarni bartaraf etishga ta'sirini baholash hisoblanadi.

### **5.3. Makroprudensial siyosatning boshqa siyosatlar bilan o'zaro bog'liqligi**


Makroprudensial siyosat Markaziy bankning pul-kredit hamda mikroprudensial siyosatlari bilan o'zaro bog'liq. Pul-kredit va makroprudensial siyosatlarning maqsadlari turlicha (narxlar barqarorligi va moliyaviy barqarorlik) bo'lib, shu ikki maqsadga erishilishi barqaror iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Pul-kredit va makroprudensial siyosatlar bir-birlarini bir qator transmission kanallar orqali to'ldiradi. Masalan, o'sish davrida kapital buferlari darajasining yuqori bo'lishi bir tomondan moliyaviy tizim barqarorligini oshiradi, ikkinchi tomondan esa moliyaviy shoklar natijasida yuzaga keladigan inflyatsiya ta'sirlarini yumshatadi.

Biroq, past inflyatsiya sharoitida pul-kredit siyosatning yumshatilishi ta'sirida kredit o'sishini rag'batlantirishi, bu esa, o'z navbatida, tizimli xatarlarni to'planishiga (narx pufaklari) olib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, Markaziy bank makroprudensial va pul-kredit siyosatini o'zaro muvofiq tarzda olib boradi. Markaziy bank ma'lum bir siyosatning maqsadiga erishish uchun faqatgina o'sha siyosatning vositalaridan foydalanadi (9-chizma).

Markaziy bank makroprudensial siyosatni amalga oshirishda narxlar barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlaydi.

## **9-chizma. Markaziy bankda pul-kredit, makroprudensial va mikroprudensial siyosatlarning o'zaro bog'liqligi**



Manba: Markaziy bank.

Mikroprudensial siyosatning asosiy maqsadi omonatchilarni himoya qilish bo'lib, individual moliyaviy institutlarning barqarorligini ta'minlashni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, individual institutlarning tashqi va ichki shoklarga bardoshliligi umumiyligi moliyaviy tizimning barqarorligiga asos bo'lib xizmat qiladi yoki aksincha bo'ladi.

Boshqa tomondan esa, moliyaviy nobarqaror davrda makroprudensial va mikroprudensial siyosatlar o'rtasida keskinlik yuzaga kelishi mumkin. Xususan, makroprudensial siyosat kapital buferlari talablarini yengillashtirish orqali iqtisodiyotning real sektoriga kredit ajratilishini va aktivlarning shoshilinch sotuvini oldini olishni rag'batlantirishga intiladi.

Shu bilan birga, mikroprudensial siyosat esa mazkur kapital talablarini o'z darajasida qoldirish yoki ularni qat'iylashtirish bilan individual banklarning to'lovga qobiliyati hamda likvidlilagini saqlab turishni va shu yo'l orqali omonatchilarning manfaatlarini himoya qilishni ko'zlaydi. Makroprudensial va mikroprudensial siyosatlar bir xil bo'lgan bir qator vositalar hamda transmission kanallardan foydalanadi.

Biroq, ulardan foydalanish maqsadlari siyosatlar o'rtasida farq qiladi. Shu sababli, ma'lumotlar almashish, xatarlarni birgalikda tahlil qilish hamda Markaziy bankning makroprudensial va mikroprudensial tarkibiy bo'linmalari

orasidagi mustahkam kommunikatsiya ushbu siyosatlar o'rtasidagi muvofiqlikni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Muvofiqlashtirishning yana bir yo'nalishi Markaziy bankning vakolatidan tashqarida bo'lgan tarkibiy siyosatlarni (masalan, uy xo'jaliklarining qarzdorligini qo'llab-quvvatlash) o'z ichiga oladi. Uy-joy sektorida talab va taklif o'rtasida dastlabki nomutanosibliklar yuzaga kelganda, tarkibiy chora-tadbirlar qo'llashishi lozim, biroq makroprudensial siyosatning o'zi ushbu nomutanosibliklarni bartaraf eta olmaydi. Shu sababli, Markaziy bank tarkibiy siyosatlar bilan muvofiqlashtirish choralarini ko'rib boradi.

#### **5.4. Makroprudensial siyosat kommunikatsiyasi**

Markaziy bank makroprudensial siyosat bo'yicha kommunikatsiyani o'zining umumiyligi kommunikatsiya strategiyasiga<sup>13</sup> muvofiq amalga oshiradi hamda maqsadli auditoriya va keng jamoatchilik bilan bir qator kommunikatsion kanallar va vositalar orqali muloqotni yo'lga qo'yadi. Bunda ishonchlilik, ochiqlik va tushunarilik makroprudensial siyosat kommunikatsiyasining asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Markaziy bank makroprudensial siyosat bo'yicha keng jamoatchilik bilan samarali muloqotni ta'minlashda asosiy kommunikatsion kanal sifatida Markaziy bankning rasmiy saytidagi "Moliyaviy barqarorlik" bo'limidan foydalanadi. Ushbu bo'limda makroprudensial siyosatning mohiyati, asoslari va vositalari, moliyaviy barqarorlik sharhlari, tadqiqot va tahliliy materiallar muntazam ravishda chop etib boriladi.

Bundan tashqari, Markaziy bank makroprudensial siyosatning ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida muqobil (ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar, fokus guruqlar hamda so'rovnomalari) va an'anaviy (ommaviy axborot vositalari, ommaviy tadbirlar va mutaxassislar) kanallar orqali ham kommunikatsiyani amalga oshiradi.

Yiliga ikki marotaba chop etiladigan "Moliyaviy barqarorlik sharhi" (Financial Stability Report, FSR) moliya tizimi ishtirokchilari va keng jamoatchilik bilan samarali muloqot o'rnatishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu sharh moliya tizimida mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial tizimli xatarlar tahlili va makroprudensial chora-tadbirlar kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

---

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan kommunikatsiya strategiyasi.

Bundan tashqari, ushbu sharhning asosiy jihatlarini qamrab oladigan hamda makroprudensial siyosat qarorlari bo'yicha press-relizlar e'lon qilinadi. Markaziy bank moliyaviy barqarorlik sharhlari bo'yicha matbuot anjumanlari, shuningdek, moliyaviy barqarorlikka oid turli mavzularda seminarlar va boshqa tadbirlar tashkil etish orqali maqsadli auditoriyani moliya tizimidagi ehtimoliy tizimli xatarlar tahlili hamda makroprudensial chora-tadbirlar bilan tanishtirib boradi.

Shuningdek, zarur hollarda joriy va kelajakdagi tizimli xatarlarning moliya tizimi hamda real iqtisodiyotga salbiy ta'sirlari muhokamasi ommaviy axborot vositalarida yoritib boriladi.

## Glossary

**Aktivlarning shoshilinch sotuvi** – aktiv egasining kreditor talablarini qondirish uchun aktivlarini chegirmalni narxda majburan sotishi.

**Davriy tizimli xatar** – moliyaviy hamda boshqa iqtisodiy sub'ektlar tomonidan prosiklik, ya'ni moliyaviy siklning o'sish bosqichida tavakkalchilik darajasini oshirish va aksincha, pasayish davrida esa xatardan keragidan ortiqcha qochishi sababli paydo bo'ladi. Ushbu prosiklik tendensiyalar o'zini moliyaviy institatlardagi (shuningdek, boshqa iqtisodiy sub'ektlarda ham) ortiqcha leveraj hamda moliyaviy sektordagi muddatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar natijasida yuzaga kelgan kredit va likvidlilik sikllari sharoitida namoyon bo'ladi.

**Defolt holatida yo'qotishlar hajmi** – bankning qarz oluvchi o'z qarzini to'lashga qodir bo'lмагanda yoki uni to'lashni istamaganda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish; kredit yoki garov nominal qiymatining defolt sodir bo'lгandan keyin qoplanmaydigan qismi.

**Kapital buferlar** – banklarning turli shoklarga bardoshliligin oshirish maqsadida birinchi darajali asosiy kapital tarkibida shakllantiriladigan hamda reguliyativ kapital me'yorlarga qo'shimcha tarzda joriy qilinadigan talablar.

**Kontrsiklik kapital buferi** – kredit tashkilotlari tomonidan sektordagi davriy tizimli xatarlar ortib borayotganda keyinchalik yo'qotishlar yuzaga keladigan stress davrida bank tizimining bardoshliligin oshirish maqsadida to'planadigan kapital buferlari hisoblanadi. Mazkur buferlar iqtisodiyotni kreditlar bilan ta'minlash darajasini bir maromda saqlab qolish hamda moliyaviy siklning pasayish davridagi yo'qotishlarni yumshatishga hissa qo'shadi. Shuningdek, kontrsiklik kapital buferlari moliyaviy siklning o'sish davrida kreditlarning keragidan ortiqcha oshish darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

**Qat'iy qoidaga asoslanmagan (moslashuvchan) boshqaruв** – makroprudensial vositalar moliyaviy tizimga turlicha ta'sir qila olishini inobatga olgan holda, mazkur vositalarni faollashtirish yoki faolsizlantirish hamda ularning darajalarini moslashtirish bo'yicha makroprudensial siyosat qarorlari faqatgina qat'iy qoidalarga tayanmasligi va shu orqali markaziy bank uchun qaror qabul qilish jarayoniga sifat omillari va asoslantirilgan ekspert xulosalarini inobatga olish uchun yuqori darajadagi ixtiyoriylik imkoniyatining berilishi.

**Leveraj koeffitsiyenti** – bank jami aktivlarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich bo'lib, bankning umumiy xatarini nazorat qilish uchun foydalaniladi. Uning asosiy maqsadi bankning o'z kapitalidan foydalanishi mumkin bo'lgan maksimal darajaga cheklov o'rnatishdir. Leveraj koeffitsiyentida tavakkalchilikka tortilgan aktivlar hisobga olinmaydi va shu bilan kapital monandlilik talablaridan farq qiladi. Bu aktivlarning kapitalga nisbatan nomutanosib ravishda oshib ketishiga qarshi oddiy va samarali vosita hisoblanadi.

**Leverajni kamaytirish (Deleveraging)** – banklar tomonidan o'z qarzlarini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon. Leverajni kamaytirish ixtiyoriy bo'lganda asosan xatarlarni yumshatish ko'zda tutilsa, ba'zan moliyaviy holatning yomonlashuvi natijasida kelib chiqadigan bankrotlikdan qochish uchun ham foydalaniladi.

**Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti** – likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti banklarning qisqa muddatli likvidlilik shoklariga bardoshliligini oshirishuvchi vosita hisoblanadi. Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanadi.

**Makro stress-test** – butun moliyaviy tizimning xatarli ssenariylardagi o'ta xavfli, ammo sodir bo'lishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan tizimli xatar omillariga bardoshliligini o'lchash hamda stress holati yuzaga kelganda barqarorlikni saqlab qolish uchun yetarli kapital va likvid aktivlarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan vositalar majmui.

**Makroprudensial siyosat vositalari** – makroprudensial siyosatning bosh va oraliq maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan vositalar va cheklovlari.

**Makroprudensial siyosat** – tizimli xatarlarni cheklash va ularning salbiy oqibatlarini yumshatish, iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydigan buferlar joriy etish orqali moliyaviy tizimning barqarorligini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuasidan iborat. Makroprudensial siyosat quyidagilar bilan tavsiflanadi: (a) uning maqsadi tizimli xatarlarni cheklashdan iborat; (b) qo'llanilish doirasi individual institutlarga emas, balki butun moliyaviy tizimga (jumladan, real va moliyaviy sektorlarning o'zaro munosabatlariiga) qaratilgan siyosatdir; (s) birinchi navbatda, tizimli xatarlarning manbalariga yo'naltirish uchun moslashtirilgan prudensial vositalardan foydalanadi.

**Makroprudensial siyosatning transmission (uzatish) kanallari** – makroprudensial siyosatga doir qarolarning moliyaviy tizim bardoshliliga va kredit sikliga ta'sir qilish kanallari hisoblanadi. Makroprudensial siyosat vositalarining qat'iylashtirilishi moliyaviy tizim va real iqtisodiyotga narx, miqdor, bardoshlilik va kutilmalar kanallari orqali uzatiladi.

**Moliyaviy barqarorlik** – bank tizimning, ya'ni kredit tashkilotlari va bozor infratuzilmalarining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shoklarga bardoshli bo'lib, moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajarishda uzhishlar yuz berish ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlikka erishish deganda, individual moliyaviy tashkilotlarning emas, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlash tushuniladi;

Moliyaviy tizimning xatarlarni aniqlash, baholash, boshqarish hamda iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, shuningdek, tashqi va ichki shoklar yuz berishiga qaramasdan moliyaviy xizmatlarni uzlusiz ko'rsata olish qobiliyati hisoblanadi. Moliyaviy tizim iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish hamda kutilmagan moliyaviy nomutanosibliklarni bartaraf etishga qodir bo'lganda barqaror hisoblanadi.

**Moliyaviy siki** – to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy tizim sababli kelib chiqadigan yoki u tomonidan kuchaytiriladigan iqtisodiy tebranishlar sifatida qaralishi mumkin. Odatda, moliyaviy siki o'zini kredit agregatlari va aktivlar narxlari o'rtasidagi birligidagi harakat sifatida namoyon qiladi, bu esa real iqtisodiy o'zgarishlarga ham ta'sir qilishi mumkin.

**Tartibga solish arbitraji** – moliyaviy bozor ishtirokchilari cheklovlarni chetlab o'tish maqsadida nisbatan kamroq nazorat qilinadigan bozor segmentlarida o'z faoliyatlarini ko'chirishi va (yoki) boshlashi natijasida nisbiy afzalliklarga ega bo'lishi.

**Risk-profil** – portfel uchun investitsiya aktivlarini to'g'ri taqsimlashni aniqlash uchun zarur bo'lgan baholashdir. Individual investorlar, moliyaviy tashkilotlar yoki kompaniyalar o'ziga xos risk-profillariga ega, chunki ularning risk appetitlari psixologik faktorlar, yo'qotishlarni qoplash qobiliyati, investorlarning yoshi va boshqa investitsion maqsadlari bo'yicha farqlanishi mumkin; bu investorning tavakkalchilikka bo'lgan munosabatini ifoda etadi va investitsion portfeldagi aktivlarni samarali taqsimoti uchun muhim ahamiyatga ega. Odatda, risk-profilidan kelib chiqib investorlarni konservativ, ratsional va aggressiv turlarga ajratish mumkin.

**Sof barqaror moliyalashtirishning me'yoriy koeffitsiyenti** – uzoq davr davomida moliyalashtirishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, banklardan uzoq muddatli aktivlarni uzoq muddatli majburiyatlar bilan moliyalashtirishni talab qiladi va shu orqali muddatlar o'rtasidagi nomutanosiblik (maturity mismatch) darajasini cheklaydi. Mazkur vositadan likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyentini to'ldiruvchi qo'shimcha talab sifatida foydalaniladi.

**Tizimli ahamiyatga molik bank** – bank tizimining barqarorligi qaysi bankning faoliyatiga bog'liq bo'lsa, o'sha bank tushiniladi; o'z hajmi, murakkabligi va tizimli o'zaro bog'liqligi natijasida nazorat qilib bo'lmaydigan muvaffaqiyatsizligi butun bank tizimi hamda iqtisodiy faoliyatda jiddiy uzilishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan banklardir.

**Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi** – tizimli ahamiyatga molik deb topilgan banklarning faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shok yoki yo'qotishlarga bardoshlilagini oshirish maqsadida kapitalga qo'shimcha talablar joriy etilishidir. Tizimli ahamiyatga ega bo'lgan banklarning to'lov qobiliyati yuqoriligi nafaqat moliyaviy tizimining, balki umuman iqtisodiyotning barqarorligi va xavfsizligini mustahkamlaydi.

**Tizimli xatar buferi** – kontrsiklik kapital buferi yoki tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferlari kabi makroprudensial vositalar orqali qamrab olinmagan tizimli xatarlar mavjud bo'lganda, ularni bartaraf etishga qaratilgan vosita. Mazkur bufer umumiylar darajadagi tizimli xatarlarni yoki bank tavakkalchiliklari to'plamlariga bog'langan xatarlarni bartaraf qilish uchun ishlatalishi mumkin.

**Tizimli xatar** – umumiylar moliya tizimida yoki uning ma'lum bir sektorida jiddiy muvaffaqiyatsizlik natijasida yuzaga keladigan va real iqtisodiyot uchun jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdagi keng miqyosdagi uzilishlar xavfi. Makroprudensial chora-tadbirlar qo'llashdan asosiy ko'zlangan maqsad tizimli xatarlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini yumshatish orqali moliyaviy inqirozlarning yuzaga kelish davriyiligi va keskinligini kamaytirish hisoblanadi. Tizimli xatarlar odatda ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: tarkibiy va davriy tizimli xatarlar.

**Tarkibiy tizimli xatar** – moliya tizimi bo'ylab xatarlarning taqsimlanishi va moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar hamda umumiylar tavakkalchiliklar natijasida paydo bo'luvchi xavf.

**“Tanazzulga uchramoq uchun haddan ziyod yirik” tashkilot** – ma'lum bir moliyaviy tashkilot yuqori darajada tizimli ahamiyatga ega ekanligini hamda uning qulashi butun moliyaviy tizimda nobarqarorlikni va umuman iqtisodiyotning inqirozga uchrashiga olib kelishini anglatadi.

### Makroprudensial siyosatning oraliq maqsadlari va tavsiyaviy vositalari<sup>14</sup>

Oraliq maqsadlar	Tavsiyaviy vositalar
Leveraj va kreditlar o'sish sur'atini moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sirini oldini olish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Kontrsiklik kapital bufer (CCyB)</li> <li>- Tarmoqlar uchun (sektorral) kapital talablar (tarmoqqa yo'naltirilgan kreditlarning yuqori o'sish sur'atlari bo'yicha tavakkalchilik)</li> <li>- Makroprudensial leveraj nisbati</li> <li>- Kredit summasining garov summasiga nisbati cheklovi (LTV)</li> <li>- Kredit to'lovining yoki qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati cheklovi (PTI/DSTI)</li> <li>- Kredit yoki qarz summasini daromadga nisbati cheklovi (LTI/DTI)</li> </ul>
Dollarlashuvning tizimli xatarlarini cheklash	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tavakkalchilik vaznlarini hisobga olish (valyuta turiga ko'ra tabaqlashtirish)</li> <li>- Kredit summasini garov summasiga, kredit yoki qarz summasini daromadga nisbatiga cheklovlar (valyuta turiga ko'ra tabaqlashtirish)</li> <li>- Xorijiy valyutada qarz berish va qarz olishga cheklov</li> <li>- Korporativ kreditlarga tavakkalchilik cheklovlar (xorijiy valyutadagi kreditlar)</li> <li>- Valyuta turlari bo'yicha likvidlilikni qoplashning me'yoriy koeffitsiyenti</li> <li>- Valyuta turlari bo'yicha sof barqaror moliyalashtirishning me'yoriy koeffitsiyenti</li> <li>- Valyuta turlari bo'yicha majburiy zaxiralar</li> <li>- Valyuta turlari bo'yicha majburiy boshlang'ich to'lov</li> <li>- Tizimli xatar buferi (SyRB)</li> </ul>
Muddatlar o'rtaqidagi nomutanosibliklarni hamda bozor nolikvidliliginini kamaytirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Likvidlilikni qoplash me'yoriy koeffitsiyenti (LCR)</li> <li>- Sof barqaror moliyalashtirishning me'yoriy koeffitsiyenti (NSFR)</li> <li>- Kreditlarning depozitga nisbati (LTD)</li> </ul>
Tavakkalchiliklarning konsentratsiyalashuvini tartibga solish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tarmoqlar bo'yicha tizimli xatar buferi</li> <li>- Yirik tavakkalchiliklarga cheklovlar</li> </ul>
Tizimli ahamiyatga molik banklar tomonidan haddan ziyod ko'p xatarlar jamlanishining oldini olish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital bufer</li> </ul>

<sup>14</sup> Bu yerda, global miqyosda eng ko'p qo'llaniladigan vositalar keltirib o'tilgan. Ushbu vositalar tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, Markaziy bank ulardan foydalanishi yoki aniqlangan tizimli xatarlarga ko'proq mos keladigan yangi vositalarni joriy qilishi mumkin.